



2019 yilning yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2298,1 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi – **101,1%** ni tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o`rtacha **2764,1 ming.so`mni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **113,4%**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **30,4 %** ni tashkil etib, aholi jon boshiga o`rtacha **841,3 ming.so`mga** to`gri keldi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **39,2%**


2019 yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2298,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 101,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 7,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 3,2 % ga o'sishi hisoblandi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda



2019 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 96,0% ni tashkil etganni kuzatish mumkin.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).



Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1137,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 49,5 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 99,4 % ni tashkil etgani kuzatildi.


Hususan 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoxda, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 121,3 % ni, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish indeksi 110,8 % ni, asosiy farmaseftika mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 110,2 % ni hamda teri va charm mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 103,1 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,8 % ni (2018 yilning yanvar-aprel oylarida - 4,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,3 % (5,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 8,5 % (8,3%) va quyi texnologiyali - 81,4 % (81,7 %) tashkil etdi.

Yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



**Yanvar-aprel oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil	2018 yil yanvar- aprelga nisbatan, %
	Sellyuloza, ming kg 90%		
198,8		588,2	295,9
	Un, ming tonna		
12,0		12,7	105,8
	Ho`jalik sovuni tonna		
650,0		538,3	82,8
	Kalava ip, tonna		
1492,0		1218,0	81,6
	Paxta tolasi, ming tonna		
27,1		16,2	59,8
	Paxta urug'l, ming tonna		
43,0		25,4	59,2
	Kunjara, ming tonna		
21,3		14,7	68,9
	O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna		
4,7		2,5	53,4
	Aroq – mig litr 100 % spirit		
370,1		90,0	24,3

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1084,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 47,2 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 103,2 % ga oshganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 103,4 % ni va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 92,9 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
5795,2	Elektroenergiya, mln kVt/s 	5819,4	99,6
95,3	Issiqlik energiyasi, mln Gkal 	65,9	69,2



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan hajm indekslari shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar 14,5 % ga hamda oqova suvlar xizmatlari 0,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda

2851,3



3433,0

120,4

Shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar, mln so`mda

478,8




581,8

121,5

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 699,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 113,4 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 30,4 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 55,1 % dan 2019 yilning yanvar-aprel oylarida 59,2 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 4,2 % ni (2018 yilning yanvar-aprel oylarida 5,7 %) tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1027,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 44,7 % ulushini), Sirdaryo tumani 371,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,2 % ulushini), Guliston shahri 297,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 12,9 % ulushini), Boyovut 149,6 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,5 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Xovos tumani 43,8 mlrd so'm (1,9 %), Guliston tumani 34,7 mlrd so'm (1,5 %) va Sardoba tumani 23,3 mlrd so'm (1,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2764,1 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi tahlil qilinganda, Shirin shahrida 55531,0 ming so'mni tashkil etib o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shahrlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 127,1%, Xovos tumanida 106,6 % hamda Yangiyer shahrida 105,4 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Oqoltin tumanida 93,3 % va Sardoba tumanida 37,6% ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 900,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 39,2 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 107,9 foizni tashkil qilgan.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo`limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23